



LOCALIZATION PROCESS AND ITS RESULTS IN UZBEKISTAN

Shaira Davlatova
Doctor of Philosophy in History (PhD)
Termiz State University
Uzbekistan, Termiz

ABOUT ARTICLE

Key words: nation, national, local, local population, representatives of local nationality, localization, Uzbekization, Central Commission of Uzbekization, national minority, national discrimination.

Abstract: This article discusses the policy of localization and Uzbekization carried out by the Soviet authorities in Uzbekistan in the 20s of the 20th century.

Received: 13.10.24

Accepted: 15.10.24

Published: 17.10.24

O‘ZBEKISTONDA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONI VA UNING NATIJALARI

Shoira Davlatova
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Termiz davlat universiteti
O‘zbekiston, Termiz

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: millat, milliy, mahalliy, mahalliy aholi, mahalliy millat vakillari, mahalliy lashtirish, o‘zbeklashtirish, o‘zbeklashtirish Markaziy Komissiyasi, milliy ozchilik, milliy kamsitish.

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrning 20-yillarida O‘zbekistonda sovet hokimiyati tomonidan o‘tkazilgan mahalliy lashtirish, o‘zbeklashtirish siyosati haqida fikr yuritilgan.

ПРОЦЕСС ЛОКАЛИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЕГО РЕЗУЛЬТАТЫ

Шаира Давлатова
Доктор философии по истории (PhD)
Термезский государственный университет
Узбекистан, Термез

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: нация, национальный, местный, население, представители национальности, локализация,

Аннотация: В данной статье рассматривается политика локализации и узбекизации, проводимая советской властью в Узбекистане в 20-е годы XX века.

узбекизация, Центральная комиссия
узбекизации, национальное меньшинство,
национальная дискриминация.

XX asr 20-yillarining o'rtalarida O'rta Osiyo xalqlari hayotida sodir bo'lgan katta siyosiy o'zgarishlar – bu hududda majburan milliy-hududiy chegaralanishning o'tkazilishi, O'zbekiston SSRning tashkil etilishi tub yerli aholining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy, diniy, milliy huquqlarining cheklanishini yanada kuchaytirdi. Bu holat mahalliy aholi, milliy rahbar xodimlarning noroziliklariga sabab bo'ldi. Mustabid tuzumning zo'ravonligi, o'zbek tilining mavqei kamayib, rus tilining asosiy muomala tili sifatidagi obro'sining oshirilishi yerli millat vakillarining turli siyosiy talablar bilan harakat boshlashga majbur qildi. Milliy rahbar kadrlar xalq xohish-irodasini ifodalovchi sa'y-harakatlar bilan markaz idoralariga murojaat qilishdi. Chunki mahalliy aholini ayniqsa, o'z tilidan mahrum qilish, milliylikidan judo etish, milliy kamsitish kabi tahqirlash harakatlari to'xtovsiz o'sib borayotgan edi. Shuning natijasi sifatida 1923-yilda boshlanib, 1933- yillargacha davom etgan mahalliyashtirish, o'zbeklashtirish jarayoni okruglar bo'yicha: Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Xo'jand, Buxoro, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Andijon, Xorazmda; tashkilotlar bo'yicha: sovet, partiya, davlat, xo'jalik, kooperativ, jamoat, sanoat, ya'ni barcha korxonalar va ularning qismlarida olib borildi. Bu siyosatni amalga oshirish uchun 1925-yil “Davlat apparatini mahalliyashtirish Markaziy Komissiyasi” tashkil etildi. 1927- yildan ushbu komissiyaning nomi o'zgartirilib, “Davlat apparati va sanoatni o'zbeklashtirish Markaziy Komissiyasi” deb nomlandi. Mazkur Komissiya o'z faoliyatini ikki yo'nalishda: 1.Apparatni o'zbeklashtirish. 2.Mahalliy aholini sanoatga jalb qilish sohasida yuritishi ish rejaga kiritildi.

Mahalliyashtirish, o'zbeklashtirish siyosatini tashkil etish, olib borish va nazorat qilishda Mehnat Xalq Komissarligi, Mehnat birjalari, kasaba uyushmalari, Maorif Xalq Komissarligiga ko'proq mas'uliyat yuklatildi. Mehnat Xalq Komissarligi, o'zbeklashtirish Markaziy Komissiyasi va sovet kasaba uyushmalari tomonidan o'zbeklashtirish birinchi navbatda sovet apparatidan boshlanishi kerakligi ta'kidlanadi. [1.23] Mahalliyashtirish siyosati boshlangan dastlabki yillarda barcha sohalarda milliy kadrlar qatlamini ko'paytirish, ish yuritishni o'zbek tilida yoki ikki tilda, ya'ni o'zbek va rus tillarida tashkil etish, mahalliy millat vakillaridan mutaxassis xodimlar tayrlash ishlariga keng e'tibor qaratildi. Masalan, 1925-yil okruglarda davlat apparatlarida ishlayotgan 100 nafar xodimning 30 nafari o'zbek millatiga mansub bo'lsa, 1927-yilda 100 nafar xodimning 49 nafari o'zbek millatiga mansub edi. 1925-yil Farg'ona okrugida 100 nafar xodimdan 28 nafari o'zbek bo'lgan bo'lsa, 1927-yil 100 nafar xodimning 54 nafari, Xorazm okrugida 100 nafardan 45 nafari (1925-yil) o'zbek bo'lgan bo'lsa, 1927-yil 55 nafar xodimlar o'zbek millatiga mansub edi. “Qo'shchi” ittifoqida o'zbeklashtirish siyosati yaxshi tashkil etildi. [2.9] 1925-yil temir yo'l

xodimlarining 100 nafaridan 10 nafari o'zbek, 1926-yil esa 22 nafari o'zbeklar hissasiga to'g'ri kelgan. "Turkipak" korxonasi 100 nafar xodimining 62 nafari o'zbek bo'lgan. "O'zbek neft" korxonasi esa 48,6% mahalliyashtirilgan. [3.10] 1925-yil respublika bo'yicha mahalliyashtirish jarayoni 28% ni tashkil etgan. [4.18] Bu ko'rsatkich respublikadagi barcha korxonalarda mahalliyashtirish siyosati rejadagidek amalga oshirilmaganligini bildiradi. Markaziy apparatlarda o'zbeklashtirish sohasida nafaqat yutuqlar yo'qligi, balki bu davrda o'zbek xodimlar soni kamayib ketganligi ta'kidlanadi. Jumladan, markaziy xo'jalik tashkilotlarda 1925-yil o'zbek xodimlar 34 nafarni tashkil qilgan bo'lsa, 1927-yil ularning soni 16 nafar bo'lib, 18 nafarga kamaygan. [5.10]

Turkiston MIQ, O'zSSR MIQlarining ish yuritishni ikki tilda tashkil qilish to'g'risidagi qarorlarini bajarish bo'yicha tahlillar 1925-yil bu qaror davlat apparatlarida 35%, xo'jalik tashkilotlarida 27%, kooperativ tashkilotlarda 14% bajarilganligidan, banklarda, jamg'arma g'aznalarda esa ish yuritish rus tilida tashkil qilinganligini dalolat beradi. [6.11]

1925-yilda qishloq sovetlari va volostlarda ish yuritish to'liq o'zbek tilida olib borilgan. Uyezd soveti apparatlari ham 70-90% mahalliy xodimlar bilan to'ldirilgan. Okrug apparatlari 1925-yil 30%, 1927-yil 1-yanvargacha 49% o'zbeklashtirilgan. Samarqand okrugi 35%, Xorazm okrugi 44,5% o'zbeklashtirilgan. 1925-yil respublika miqyosidagi davlat korxonalari 18%, xo'jalik korxonalari 33% o'zbeklashtirilgan. [7.13]

1927-yil 16-sentabrda VKP(b) MKga VKP(b) MK tashkiliy-taqsimot bo'limining sovet, partiya, kasaba uyushmasi va kooperativ apparatlarni mahalliyashtirish amaliyoti haqidagi hisobot materiallarida ta'kidlanishicha, 1924- yil mahalliy aholining kasaba uyushmalariga a'zoligi 40%, 1926-yil 43,5%, markaziy organlarda 48,1%, uyezdlarda esa 62,4%ni tashkil etgan. [8. 507] 1924- yil mahalliy aholini sanoatga jalb qilish ko'rsatkichi 41% bo'lgan bo'lsa, 1926-yil bu ko'rsatkich 35 % ni tashkil qilgan [9.506], ya'ni 6% ga kamaygan.

Hisobot ma'ruzasida keltirilishicha, 1924-1926-yillarda O'zbekistonda mas'ul xodimlarning 35 foizi, xizmatchilarning foizi, o'rta texnik xodimlarning foizi, mutaxassis ishchi xodimlarning 8 foizi o'zbek millatiga mansub bo'lgan.

1924-1926-yillar davomida ishchilar soni 49,3% bo'lgan. 1927-yilga kelib ishchilar soni 4,5% ga qisqargan, dehqonlar 2,2% ko'paydi. Partiya saflaridagi ishchi-dehqonlardan boshqalar 27,7% dan 30,4 % gacha ko'paygan.

1925-yil 1-yanvardan 1927-yil 1-iyulgacha O'zbekistonda partiya tashkilotlarida kommunistlar 64,3%, mahalliy kommunistlar esa 43,8% ga teng bo'lgan. Respublikadagi partiya tashkilotlarida ishchilar soni 1925-yil 38,1%, 1927- yil 41,5 foizga ko'paygan. Dehqonlar soni 37,3 foizdan 33,8 foizga kamaygan, xizmatchilar 24,6 foizdan 24,7 foizga ko'paygan. [10.504]

1927-yil partiya a'zolarining 46,1 foizi, okruglardagi plenumlar tarkibining 61,2 foizi, rayon komiteti kommunistlarining 53,4 foizi o'zbek millatiga mansub bo'lgan. Markaziy Komitet va

okrug komitetlarida partiya a'zolari tarkibida mahalliy millat vakillari 41,5 foizni tashkil etgan. [11.505]

1926-yil O'zbekistondagi turli qisqa muddatli kurslarda 1015 nafar o'zbeklar o'qitilgan. Shu davrda respublika markaziy tashkilotlarida 70 nafar amaliyotchi bo'lgan. VKP(b) Markaziy Komitetining mazkur ma'ruzasida aytilishicha, O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning bu usuli (ya'ni amaliyotchilar usuli) yaxshi natija bermagan. Amaliyotchilarni tanlash qoniqarli tashkil etilmagan, rahbarlar tomonidan amaliyotchilarga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Agar amaliyotchi yaxshi bo'lsa, amaliyot muddati boshlanishi bilan ishga olib qolingan. 1927-yil O'zbekistonda amaliyotchilar tayyorlash usulidan voz kechilgan. [12.509]

Kadrlar tayyorlash masalasi bevosita maorif, maktab tizimlari bilan aloqador. Shu nuqtai-nazardan ma'ruzada 1924-1926-yillarda O'zbekistonda mahalliy millat vakillarining bolalarini maktablarga jalb qilish darajasi haqida ham bir qancha ma'lumotlar beriladi. Jumladan, 1926-yil O'zbekistonda mahalliy millat bolalarini o'qitish maktablari 30,4% ni tashkil qilgan. Shu davrda maktab yoshidagi bolalarni qamrovi mahalliy millat bolalari – 8%, rus millatiga mansub bolalar – 23% bo'lgan. O'zbekistondagi 1042 maktabdan 103 tasi 3-4 yillik bo'lgan. Kambag'al va dehqonlarning bolalarini maktablarning boshlang'ich pog'onalariga qabul qilinishi juda sust bo'lgan. Boshlang'ich maktablarda o'qitish mahalliy tilda tashkil etilgan. Mahalliy aholi bolalari ikkinchi bosqich maktablariga juda kam jalb qilingan. 1925- yil ikkinchi bosqich maktablarida 3200, 1926-yili esa 3500 bolalari o'qitilgan, ular butun o'quvchilarning 11 foizini tashkil qilgan.

1924-1925-yillarda O'zbekistondagi texnikumlarda o'qiganlar mahalliy millat vakillari 899 nafarni tashkil etib, 1925-1926-yillarda 1754 nafarga yetgan. Ular butun o'quvchilarning 64 foizini tashkil qilgan.

1924-yil sotsialistik tarbiya maktablarida 858 nafar o'zbek o'qituvchilar ishlagan bo'lsa, 1925-1926 yillarda ularning soni 2546 nafarga yetgan. 1924-1926- yillarda O'zbekistonda 1780 nafar o'qituvchi qayta tayyorlashdan o'tgan. [13.516-517]

O'zbekistonda bolalarni maktablarga jalb qilish darajasi o'rtacha 20,7%, o'zbeklar orasida 8,9% ni, milliy ozchilik orasida 6,8 % ni tashkil qilgan. [14.519]

Bulardan tashqari RKP(b) Markaziy Komiteti tashkiliy-taqsimot bo'limining RKP(b) Markaziy Komitetiga bergan mazkur hisobot ma'ruzasida O'rta Osiyo byurosining 1927-yil yanvardagi Plenumdagi O'rta Osiyo byurosi raisi Zelenskiyning quyidagi fikrlarini keltiriladi: "Sharqdagi milliy respublikalarda apparatga jalb qilingan xodimlarning malakasini oshirish masalasiga e'tibor qaratilmayapti. Tashkilot rahbarlari jalb qilinganlarning o'qishiga umuman rahbarlik qilmaydi va ulardan to'g'ri foydalanishni tashkil etmaydi. Tashkilotlarda ayrim yevropaliklar tomonidan apparatni mahalliy lashtirishga passiv munosabat, qarshiliklar yuzaga kelmoqda. Ko'pgina yevropalik xodimlar milliy xodimlarga yordamchilik vazifasini

bajarmayapti, mahalliy aholiga nisbatan “ishlashga halaqit berma”, “225 rubl olib, xohlasang choyxonada o‘tir, istasang maktabga bor, mening ishingga halaqit berma, men bu ishni sendan yaxshi bajaraman”, degan qarashlar bilan munosabat bildirmoqda”. Ushbu fikrlardan shu narsa aniqki, yevropalik oddiy yoki boshliq o‘rinbosari lavozimida o‘tirgan xodimlar milliy rahbarlar va mahalliy aholi vakillariga mansub xodimlarga past nazar bilan qaragan. O‘zbeklashtirish, mahalliyashtirish siyosatini deyarli tan olmagan. Shu manbada yana bir fikr mavjudki, unda joylarda o‘zbeklashtirish siyosatini amalga oshirish uchun yoki oddiy mehnat qilish uchun mehnat sharoitlari tashkil etilmaganligidan dalolat beradi: “Ko‘p hollarda partiya tashkilotlari rahbarlik lavozimiga ishga olinayotgan xodimlarning sifatiga e‘tibor qaratilmaydi. Masalan, Farg‘ona okrugi Yer ishlari bo‘limi mahalliyashtirildi. Bo‘lim boshlig‘i o‘zbek, ssuda boshlig‘i o‘zbek, omborxonada boshlig‘i va boshliq o‘rinbosari o‘zbek. Ikki yildan buyon ularning o‘tirib ishlashlari uchun stol ham, stul ham yo‘q. Mijozlarni deraza tokchalarida qabul qilishmoqda...” [15.511]

Xuddi shu davrda ijtimoiy ta‘minot Xalq Komissari Fayzulin, uning o‘rinbosari Dmitreyev, ijtimoiy ta‘minot Xalq Komissarligi bo‘limining boshlig‘i Yeryomenko, ijtimoiy ta‘minot tashkilotlar bo‘limi boshlig‘i Haqberdiyev, viloyat ijtimoiy ta‘minot okrug bo‘limlarining rahbarlari – Chekasin (Samarqand), Lavrin (Toshkent), Jukov (Farg‘ona), Borodov (Zarafshon), Oleynikov (Qashqadaryo), Pamfilov (Surxondaryo), Avengerov (Xorazm), Vittol (Konimex)lar kabi yevropalik millat vakillaridan iborat bo‘lgan. [16.25]

Xulosa qilib aytganda, mahalliy aholi o‘zbeklashtirish siyosatidan kutayotgan maqsad asosiy millatlardan bo‘lgan mehnatkashlar ommasini sovet qurilishiga tortish, madaniy qurilish uchun milliy kadrlar yetishtirish, boshqaruv tizimiga yerli millat vakillari sonini ko‘paytirish edi. Mahalliyashtirish siyosatining rejaları risoladagidek tuzilgan bo‘lsa ham, amaliyotda o‘zini to‘la oqlamadi. Partiya o‘zining soxta milliy siyosatini xalq ommasiga tushuntirishga, singdirishga har tomonlama harakat qilmasin, yerli millat vakillaridan kundalik turmush tarzida, ish faoliyatida, amaliyotda duch kelayotgan muammoalr bu siyosatdan mahalliy aholini talablarini cheklash, chalg‘itish uchun qilinayotganligini tobora anglab bormoqda edilar. Mahalliyashtirish siyosati qarorlarini bajarishda mas‘ul tashkilotlar, mas‘ul rahbarlar, hatto partiya tashkilotlari ham yetarlicha yondoshmadilar, komissiya faoliyatini namunali tarzda tashkil etishda sovuqqonlik bilan munosabatda bo‘ldilar. Shu bois bu siyosat yerli millat vakillari kutgan natijani bermadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Milliy arxivi, 86-fond, 1-ro‘yxat, 4470-ish, 23-varaq.
2. Шубин и Нестербург. Брошюра по узбекизации. Глава 5. O‘zbekiston Milliy arxivi, 86-fond, 4-ro‘yxat, 5248-ish, 9-varaq.
3. Шубин и Нестербург. Брошюра по узбекизации. Глава 5. O‘zbekiston Milliy arxivi, 86-fond, 1-ro‘yxat, 3653-ish, 10-varaq.

4. O'sha yerda 18-varaq.
5. O'sha yerda 10-varaq.
6. O'sha yerda 11-varaq.
7. O'sha yerda 13-varaq.
8. ЦК РКП(б) и национальный вопрос. Кн. 1. 1918-1933 гг. Составители: Л.С.Гатагова, Л.П.Кошелева, Л.А.Роговая. – М.: РОССПЕН, 2005. – стр. 507.
9. Там же стр. 506.
10. Там же стр. 504.
11. Там же стр. 505.
12. Там же стр. 509.
13. Там же стр. 516-517.
14. Там же стр. 519.
15. Там же стр. 511.
16. O'zbekiston Milliy arxivi, 86-fond, 1-ro'yxat, 2448-ish, 25-varaq.